

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**



**IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT**

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему .....	24
<b>S.S. Ismailov</b>	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsiyal investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari.....	53
<b>Sultanov Maximud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitora Sunnat kizi</b>	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития ЭКОНОМИКИ .....	61
<b>Вохидова Мехри Хасановна</b>	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран .....	69
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
<b>Babamatov Tolib Xakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihibalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Oценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций .....	116
<b>Умидда Юлдашева</b>	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
<b>Арипходжаев Сайдамир Фузулiddинович</b>	

# MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish ..... 127  
**Ismoilov Sherzod Dilshodovich**



# YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR BO'YICHA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TASHKIL ETISH



**Idrisov Alisher Otajonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligin tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari hamda ular tomonidan to'langan soliqlarning davlat budgetidagi ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** soliq ma'muriyatchiligi, yirik soliq to'lovchilar, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, yirik soliq to'lovchilarni hisobga olish, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlari.

**Abstract:** This article examines issues related to the theoretical and legal foundations of organizing tax administration for large taxpayers.

**Key words:** Tax administration, large taxpayers, net income from sales of products (goods, works, services), accounting of large taxpayers, criteria for inclusion in the category of large taxpayers.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с теоретическими и правовыми основами организации налогового администрирования крупных налогоплательщиков.

**Ключевые слова:** Налоговое администрирование, крупные налогоплательщики, чистый доход от реализации продукции (товаров, работ, услуг), учет крупных налогоплательщиков, критерии включения в категорию крупных налогоплательщиков.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jaib qilish uchun soliq yukini kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq ma'muriyatchiligin zamонави uslublarini joriy etish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari belgilanib, Davlat soliq xizmati organlari faoliyati va soliq ma'muriyatchiligin samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mazkur chora-tadbirlar doirasida xorijiy tajriba asosida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligin tashkil etish masalalariga alohida urg'u qaratildi.

Shunga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarni "yirik soliq to'lovchilar" toifasiga kiritishning aniq mezonlarini belgilash, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi funksiyalari hududiy davlat soliq boshqarmalariga berilishi munosabati bilan davlat soliq xizmati organlarining vazifa va funksiyalari, tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish yuzaga keldi<sup>1</sup>. Keyinchalik, yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, jumladan, soliq hisobotlarini qabul qilish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirish majburiyati yuklatilgan yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi tashkil etildi<sup>2</sup>.

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги "Солик маъмурятчилигини тубдан такомиллаштириш, соликлар ва бошқа маҳбурий тўловларнинг йигилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5116-сонли Фармони (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/3271159>);

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июндаги "Давлат солик хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПК-3802-сонли Қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/3796072>);



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatçiliginin tartibga solish yuzasidan tegishli qonun-hujjatlari qabul qilingan. Mazkur qonun-hujjatlarining asosiy vazifasi soliq qonunchiliginin tartibga solib turish bilan birlgilikda tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Shunga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning aniq mezonlarini belgilash, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatçiligi funksiyalari hududlardagi soliq organlariga berilishi munosabati bilan davlat soliq xizmati organlarining vazifa va funksiyalari, tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi. Keyinchalik, yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, jumladan, soliq hisobotlari qabul qilish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlar va yig'implarni undirish majburiyati yuklatilgan yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to'lovchilar alohida bo'linmalarni hisobga olib markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etishi va soliqlarni (yig'implarni) to'lashi, yirik soliq to'lovchilar, joylashgan yeridan qat'i nazar soliq hisobotini Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi soliq organlarida yirik soliq to'lovchilarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilashga haqli ekanligi, yirik soliq to'lovchilar toifasiga mansub bo'lgan soliq to'lovchilarning soliq auditni Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi tomonidan inspeksiya boshlig'ining (inspeksiya boshlig'i o'rinnbosarining) buyrug'i asosida amalga oshirilishi, qo'shilgan qiymat solig'ining jami summasi o'rnini tezlashtirilgan tarzda qoplash tartibi soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini xabardor qilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasining yirik soliq to'lovchilar toifasiga belgilangan tartibda kiritilgan yuridik shaxslariga nisbatan qo'llanilishi kabi tartib-qoidalari ko'zda tutilgan<sup>3</sup>.

Amaldagi qonunchilikda 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari prognozida yirik soliq to'lovchi "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinasi" aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha foyda solig'i ko'rsatkichlari alohida ko'rsatib o'tilgan<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida tegishli qonun-hujjati qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra foyda solig'i to'liqligicha O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilar ro'yxati tasdiqlangan, shuningdek, "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinasi" AJ uchun foyda solig'i stavkalari nazarda tutilgan<sup>5</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Mazkur nizomda yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari belgilab qo'yilgan<sup>6</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni qiyoslash, solishtirma tahlil, guruhash va boshqa uslublardan foydalanildi. Shuningdek, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatçiliginin tashkil etish yuzasidan amaldagi qonunchilik normalari bo'yicha ayrim masalalar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil yanvar-iyun oylarida yirik soliq to'lovchilar tomonidan 52 trln so'mdan ortiq soliq to'lagan. Shundan 25,7 trln so'mi davlat ulushi mavjud TOP-10 ta yirik soliq to'lovchi hisobiga, 4 trln so'mdan ziyodrog'i xususiy sektordagi TOP-10 yirik soliq to'lovchilar hisobiga to'g'ri kelgan.

3 Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599 сонли Қонуни билан қабул қилинган Солиқ кодекси, (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/4674902>).

4 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/6707765>).

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 29 декабрдаги Ўзбекистон Республикасининг "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-422-сонли Қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/6721144>).

6 Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ кўмитасининг 2019 йил 12 июндаги Адлия вазирлигидан 3172-сон билан рўйхатдан ўtkazilgan "Юридик шахсларни йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритишнинг мезонларини белgilash тўғрисидаги низомни тасдиqlasha ҳақида"ги қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/4416401>).



1-jadval. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida eng ko'p soliq to'lagan TOP-20 ta yirik soliq to'lovchilar<sup>7</sup>. (mlrd. so'm).

TOP-10 ta davlat ulushi bor yirik soliq to'lovchi korxonalar		
1	"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	11 425,0
2	"OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	3 949,0
3	"UZGASTRADE" AJ	2 149,0
4	"HUDUDGAZTA'MINOT" AJ	2 017,0
5	"O'ZBEKNEFTGAZ" AJ	1 766,0
6	"NAVOIYURAN" DK	1 441,0
7	"UZAUTO MOTORS" AJ	984,0
8	TIF "O'ZMILLIY BANK" AJ	746,0
9	"O'ZBEKTELEKOM" AJ	638,0
10	"O'ZTRANSGAZ" AJ	600,0
JAMI		25 715,0
TOP-10 ta xususiy sektor yirik soliq to'lovchi korxonalar		
1	"UZBAT" AJ QK	1 348,0
2	"ENTER ENGINEERING LTD"	542,0
3	"TASHKENT TOBACCO" MCHJ	434,0
4	"KAPITALBANK" ATB	339,0
5	"UNITEL" MCHJ XK	292,0
6	"GID LICENSE PLATE" MCHJ XK	268,0
7	"HAMKORBANK" ATB	238,0
8	"ADM JIZZAKH" MCHJ	200,0
9	"ERIELL GMH" DM ( <i>tashkilot va uning barcha DMIları bo'yicha</i> )	191,0
10	"EPSILON DEVELOPMENT COMPANY" MCHJ	175,0
JAMI		4 027,0
TOP-20 ta yirik soliq to'lovchilar (JAMI)		
Barcha yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar		52 048,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yirik soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tushumlarining davlat budjetidagi o'rni katta hisoblanadi, shuningdek, o'z o'rnda yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ayon bo'imoqdaki, bunda TOP-20 ta yirik soliq to'lovchilar alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilish mumkinki, TOP-20 ta korxona tomonidan jami yirik soliq to'lovchilar tushumlarining 57 foizi to'langan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganishlar natijasida yurtimizda yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatçiligini tashkil etishning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan degan xulosaga kelindi, shuningdek, yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar davlat budjetida muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, soliq hisobotlarini qabul qilish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlar va yig'implarni undirish majburiyati yuklatilgan soliq qo'mitasi tizimida alohida tuzilma ish faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bizningcha, yirik soliq to'lovchilar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda mazkur yo'nalishdagi ma'muriyatçilikni takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatçiligiga oid qonun-hujjatlari o'rganilganda ularda ko'zda tutilgan ayrim qoidalarni O'zbekistonning ma'muriy islohotlari dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qonun-hujjatlariga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilishi, qonunchilik amaliyotining yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi o'rganilganda ayrim soliq turlari bo'yicha ko'zda tutilgan soliq imtiyozlari va boshqa soliq ma'muriyatçiligini tartibga solishga oid ba'zi bir qoidalarni takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish hamda qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq;

- soliqlarning "fiskal" va "rag'batlantiruvchi" funksiyalardan yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatçiligi tizimi tashkil etishda yanada samaraliroq foydalananishni yo'lga qo'yish ijobiy natija berishi mumkin, deb hisoblaymiz.

<sup>7</sup> Жадвал маълумотлари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажкамаси хузуридаги Солик қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.



Fikrimizcha, yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'muriyatichiligining takomillashtirilishi tadbirkorlik subyektlari va jamiyat manfaatlariga birdek xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сонли Қонуни билан қабул қилинган Солик кодекси, (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/4674902>).
2. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 28 декабрдаги "Солик ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганини муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига ўзгартириш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-891-сонли Қонуни (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6718864>).
3. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6707765>).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги "Солик маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, соликлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йигилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5116-сонли Фармони (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/3271159>).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июндаги "Давлат солик хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3802-сонли Қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/3796072>).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 29 декабрдаги Ўзбекистон Республикасининг "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-422-сонли Қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6721144>).
7. Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитасининг 2019 йил 12 июлдаги Адлия вазирлигидан 3172-сон билан рўйхатдан ўтказилган "Юридик шахсларни йирик солик тўловчилар тоифасига киритишнинг мезонларини белгилаш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/4416401>).
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажкамаси ҳузуридаги Солик қўмитасининг расмий сайти - <https://soliq.uz>.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

